- iqtisodiyotda yirik moliyaviy guruuhlar (klanlar) shakllanadi, o'z faoliyati bilan bu moliya guruuhlari bozorda, asosiy tovar guruhlari bozorida va ayniqsa, tashqi savdoda raqobat kurashini cheklaydilar. Buning oqibatida aholining katta qismi qashshoqlashib ketadi;
- yashirin iqtisodiyot rivojlanishi oqibatida mamlakatning byudjet tizimi buziladi, daromad va xarajatlarini taqiqlash yoki kamaytirish, cheklashlar yuzaga keladi;
- yashirin iqtisodiyot milliy daromad iste'mol qilinishiga, foyda qayta taqsimlanishiga olib keladi. Natijada iqtisodiyotning aksariyat aholining turmush farovonligini ta'minlovchi tarmoqlari inqirozga yuz tutadi;
- yashirin iqtisodiyot vakillari o'z kapitalining asosiy qismini xorijga olib chiqib joylashtiradilar" [9; 65-b.].

"Korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda asosiy kuch biznes va jamoatchilikdir. Shu bois jamiyatda bu illatlarga nisbatan nafrat tuyg'usini shakllantirish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ularning salbiy oqibatlarini yoritib borish muhimpligi qayd etildi" [3; 2-b.].

### **Mahalliy va xorijiy olimlaring fikrlarini umumlashtirib aytish mumkinki yashirin iqtisodiyotining rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar quyidagilar:**

#### **Iqtisodiy omillar:**

- ❖ Aholining ishsizligi va kam ish haqi;
- ❖ Bojxona va soliq yukining nisbatan og'irligi;
- ❖ Davlatning biznesga nisbatan haddan tashqari nazorati.

#### **Ijtimoiy-siyosiy omillar:**

- ❖ Jamiyat ijtimoiy hayotida korrupsiya va byurokratiyaning darajasi;

#### **Xalqaro omillar:**

- ❖ Global yashirin moliyaviy jamiyatlar;
- ❖ Offshor zonalarining faolligi.

Jamiyatda yana bir yashirin iqtisodiyotning omili sifatida aholining iste'mol talabi yuqori bo'lgan tamaki, alkogol ichimliklar va qimmatbaho buyumlar (*masalan, qimmatbaho avtomobillar*) kabi tovarlarning noqonuniy importi ayniqsa juda yuqoridir. Chunki ushbu mamlakatlarda ushbu tovarlarga nisbatan soliq va bojxona to'lovlarining yuqori ekanligi sababli jahon xo'jaligida noqonuniy tadbirkorlar uchun faqatgina taqilangan tovarlar emas, balki oddiy tovarlar kontrabandasi ham daromad keltiradi. Bunga iste'molchilarni qimmat tovarlarni bojxona yig'imiqli to'lamasdan arzon narxlarda sotilishi mumkinligi asosiy omil bo'lmoqda, ularning asosiy maqsadi bojxona bojlarini aylanib o'tish hamda ko'proq foyda ko'rish uchun bozorlarni egallahashdir. Masalan, jahon bozorida tamaki eksportining 1/3 qismi kontrabandaga to'g'ri keladi.

Jamiyatning iqtisodiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi yana bir omil jinoyatdan olingan pullarni yuvish va noqonuniy daromadlarni yashirish. Ba'zi tadqiqotchilarning hisob-kitoblari bo'yicha har yili taxminan 500-1000 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi mablag' poklab olinadi (yuviladi), bu xalqaro savdo umumiylajmining 10 foizga tengdir. Jinoyatlardan olingan daromadlarni qonuniylashtirish uchun faoliyat yurituvchi xorijiy kompaniyalar va banklarni ro'yxatdan o'tkazish hamda faoliyat yuritishning qulay shart-sharoitlari, bank sirlarini saqlash kafolatlari va siyosiy barqarorligi bilan o'ziga jalb etuvchi "pul yuvuvchilarning bandargohlari" faqatgina

rivojlanayotgan mamlakatlarda emas (*Kayman va Bermud orollari kabi*), balki rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud – masalan, Shveysariya yoki Lyuksemburg.

Yashirin iqtisodiyotning mamlakatlar faoliyatiga salbiy ta'sir qiluvchi keng tarqalgan usuli sifatida uyushgan jinoiy guruhning jinoiy faoliyatdan olingan “nopok pullarini” qonuniylashtiruvchilarga nisbatan 1980-yillarda narkobiznes “imperiya”lari (*birinchi navbatda, Lotin Amerikasi*) tadqiqotchilari tomonidan “kul rang hududlar” termini qo'llana boshlandi. Aslida bu termin uchuvchilarning norasmiy lug'atida radar yordamida ko'rish imkonи bo'limgan hududlar shunday nomlanadi. Hozirgi vaqtida “kul rang hududlar” tushunchasi faqatgina geografik emas balki tarkibiy-iqtisodiy ma'noni kasb etmoqda.

**Geografik “kul rang hududlar”ga qonuniy hukumat tomonidan nazorat qilinmaydigan, “uchinchi dunyo” mamlakatlari xaritalarida oson topiladigan hududlar kiradi.** Lotin Amerikasida bu Peru, Boliviya va, ayniqsa, Kolumbiyaning bir qator hududlari bo'lib, u yerda hukumat narkopartizanlar (*masalan, Kolumbiyaning inqilobiq qurolli kuchlari*) va oddiy narkojinoyatchilar qo'lidadir. Osiyoda “kul rang hududlar” sifatida Afg'oniston va Myanmaning ba'zi yerlari namoyon bo'ladi. Afrikada “kul rang hududlar” vaqt vaqt bilan fuqarolik urushlari bo'lib turayotgan mamlakatlarda – Angola, Serra-Leone, Liberiyalarda joylashgan.

Tadqiqotchilarning fikricha nopok pullarni yuvish va noqonuniy daromadlarni yashirish bilan bog'liq mojarolarda faqatgina Kayman orollarining banklari emas, balki Shveysariya, AQSH va boshqa rivojlangan mamlakatlarning e'tiborli moliyaviy tuzilmalari ham aralashib qolishmoqda. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadal o'sib boruvchi natijasi hisoblanmish xalqaro Internet-iqtisodiyot ham borgan sari kul rang tus olmoqda, bularning barchasi yashirin iqtisodiyotni avj olishiga xizmat qiladi.

Shu o'rinda xorijiy mamlakatlar faoliyatida yashirin iqtisodiyotning ta'sirini qiyosiy tahlili o'rganilganda, Italiyada mafiya tarkibiy tizimi (*Kamorra, Ndraneta*) yashirin iqtisodiyotning yuqori tashkillanganlik darajasiga misoldir. Rossiya Federatsiyasida 1990-yillardagi “oligarxlar”ning mamlakat iqtisodidagi noqonuniy operatsiyalar ulushi mamlakat YAIMning 40% ni tashkil etgan.

Xitoyning noqonuniy “yer osti sexlari” va Hindistondagi mikrofinans tizimining norasmiyligi xufiyona iqtisodiyotining davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida keng qamrovli ijtimoiy-madaniyat ta'sirlarini anglatadi.

Shvetsiya va Norvegiyada yashirin iqtisodiyotning hajmi bu yerda soliq to'lovlarining adolatli tarkibi, ijtimoiy ko'rsatkichlarning yuqoriligi sababli mamlakat iqtisodiy tizimida ulushi YAIMning 10% dan kam deb baholanadi.

Shu o'rinda yashirin iqtisodning jamiyat iqtisodiy tizimidagi hissasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi.

“Ekspertlar hisob-kitobiga ko'ra, O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotda yashirin iqtisodiyotning ulushi 50 foizdan ko'proqni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar 2017-yil holatida jahon miqyosida 22.5 foizni, Ozarbayjonda — 66.12 foiz, Ukrainada — 46.12 foiz, Rossiyada — 39.29 foiz, Turkiyada — 24.95 foiz, Hindistonda — 16.55 foiz, Xitoyda — 10.17 foiz, AQShda — 7.69 foizni tashkil etadi. Ayni paytda jahon miqyosida mazkur ko'rsatkichlar 2025-yilga borib pasayib 21 foizni tashkil etishi bashorat qilingan” [10; 314-b.].

Natijada mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yashirin iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari quyidagilarda ko'rindi: Davlat byudjetining kamomadi, legal biznesning

raqobatbardoshligining pasayishi, ijtimoiy adolatsizlikning kuchayishi, ekologiya va iste'molchilar xavfsizligining buzilishi (*nosertifikatlangan mahsulotlar*).

Yashirin iqtisodiyotning mamlakatlar faoliyatiga ta'sirini kamaytirishga qarshi kurashish choralari quyidagilarda ko'rindi, jumladan mamlakatimizda bojaxona va soliq idoralarining raqamlashuvi (elektron invoys, onlayn hisobotlar), jamiyatda korrupsiyaga qarshi 2020–2030-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyaning ishlab chiqilganligi va kichik biznes uchun bojaxona va soliq to'lovlaridan imtiyozlarning joriy etilishi bo'lsa, bu borada xorijiy tajriba o'rganilganda Shveysariyaning bojaxona va soliq to'lovlaridan qochganlik uchun jazolarini qattiqlashtirishi; Estoniyaning "elektron rezidensiya" tizimi orqali shaffoflikni oshirish orqali erishilganligiga guvoh bo'lamic. Shu o'rinda aytish mumkinki Estoniyaning "elektron rezidensiya" (e-Residency) tizimi 2014-yilda joriy qilingan va mamlakatning raqamli innovatsiyalarga bo'lgan qiziqishini namoyon etuvchi g'oyalardan biri hisoblanadi. Bu sistema shundan iboratki, Estonia jahon bo'ylab har qanday shaxsga raqamli "rezident" bo'lish imkonini beradi. Elektron rezidensiya orqali shunchaki virtual yangiliklar orqali biznes yuritish, soliq to'lash va joriy qonunlar bilan hamkorlik qilish mumkin. Elektron rezidentlar, bu jarayonni amalga oshirish uchun fizik tarzda Estoniyada bo'lish shart emas. Ularning asosiy foydasi shundan iboratki, ular Estoniyaning raqamli xizmati orqali shu mamlakatda onlayn tartibda kompaniya ochishi, soliq to'lash, bank hisob varag'i olish, hujjatlarni tasdiqlash va boshqa davlat xizmatlaridan foydalanishlari mumkin, bu esa mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birgalikda, yashirin iqtisodga qarshi kurashish va uni oldin olishda jamoatchilik nazorati muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida bir qator xorijiy mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot xavfini qisqartirishda jamoatchilik ishtirokidan va ko'magidan keng foydalanilayotganligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, Irlandiyada iqtisodiy huquqbazarliklarni aniqlash va ularga qarshi kurashishda jamoatchilik va soliq to'lovchilarning yordami katta ahamiyatga ega bo'lib, fuqarolar, tadbirdorlar, jamoat birlashmalari va kasaba uyushmalariga elektron, og'zaki va yozma shaklda, shu jumladan anonim tarzda, huquqbazarliklar haqida xabar berish imkoniyati berilgan va murojaatchilarning shaxsi sir saqlanishi kafolatlanadi. Bu, esa fuqarolarni samarali va xavfsiz ravishda ishlashga undaydi.

Singapur davlatida esa, shunga o'xshash tizim mavjud, lekin bu yerda, xabar bergen shaxsga ma'lumotlar bergani uchun aniqlangan va undirib olingan summa asosida mukofot berish amaliyoti mavjud. Huquqbazarlik to'g'risida ma'lumot bergenlik uchun unga 100 000 Singapur dollaridan ko'p bo'lмаган summaning 15 foizi miqdorida mukofot berilishi belgilangan, bu jamoatchilikni iqtisodiy huquqbazarliklar haqida xabar berishga rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-sonli Farmonida 2021-yil 1-yanvardan "Bojaxona audit" axborot tizimini joriy etish vazifasi hamda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini "pulni yuvish"ga qarshi kurashish sohasidagi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqa bir qator vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek farmonda keltirilgan eng muhim vazifalardan yana biri yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladigan sabablar va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish daromadlarni yashirishning oldini olishga qaratilgan kompleks-

nazorat tizimini joriy etilishi esa yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu farmon va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojaxona ma'muriyatichilagini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojaxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-sonli [Farmoni talablariga](#) muvofiq Bojaxona qo'mitasiga bojaxona nazorati shakli sifatida tovarlar chiqarib yuborilgandan keyin tashqi iqtisodiy faoliyat (*keyingi o'rinnlarda TIF*) ishtirokchilari faoliyatini baholash hamda ularning tovarlar va transport vositalari chiqarib yuborilgandan keyingi hisobini tekshirishni nazarda tutuvchi bojaxona auditini amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Bojaxona auditini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 101-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu qarorda bojaxona auditini o'tkazish tartibi va shakllari belgilangan.

"Bojaxona auditi bu— tovarlarni chiqarishga ruxsat berilgandan so'ng bojaxona to'g'risidagi qonunchilik hujjalalariga rioya etilganligini vakolatli shaxslar tomonidan bojaxona rasmiylashtiruvi jarayonida taqdim etilgan hujjalarni moliya-xo'jalik faoliyatiga bog'liq hujjalarda aks ettirilgan ma'lumotlar bilan solishtirgan holda o'rganish va tekshirishga asoslangan bojaxona nazorati shakli" [4; 3-b.].

Bojaxona organlari tomonidan yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish maqsadida, bojaxona auditining **kameral bojaxona auditi** — bojaxona auditini vakolatli shaxsning ish joyi va (yoki) o'z faoliyatini amalga oshiradigan hududga bormagan holda amalga oshirish va **sayyor bojaxona auditi** — bojaxona auditini vakolatli shaxsning ish joyi va (yoki) o'z faoliyatini amalga oshiradigan hududda yoxud tovarlar joylashgan joyda amalga oshirish orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda "Bojaxona auditi quyidagi vakolatli shaxslarga nisbatan o'tkaziladi: deklarant; tashuvchi; bojaxona ombori bo'limgan joylarda tovarlarni bojaxona nazoratida saqlayotgan shaxs, bojaxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'konii va erkin ombor egalari; importchi, yukni qabul qiluvchi, tovarlarga nisbatan moliyaviy tartibga solish uchun javobgar shaxslar; tovarlar chiqarib yuborilgandan keyin ularni sotib oluvchilar; vakolatli iqtisodiy operator; vakolatli shaxsning barcha moliyaviy va huquqiy majburiyatlarini o'z zimmasiga olgan shaxslar" [4; 5-b.].

Bojaxona auditi yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda quyidagi muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

**1. Noqonuniy tovar aylanmasini aniqlash va bartaraf etish** ya'ni bojaxona audit kontrabanda, ya'ni tovarlarning davlat chegarasidan noqonuniy o'tkazilishini aniqlashda samarali vositadir. Masalan, tovarlar deklaratsiyasidagi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish orqali kam baholangan yoki yashirilgan import operatsiyalari fosh etiladi.

**2. Bojaxona to'lovleri tushumlarining to'liqligini ta'minlash:** Bojaxona audit import qilinayotgan tovarlarga tegishli bojaxona bojlari va soliqlarning to'liq to'lanishini nazorat qiladi. Bu davlat byudjetiga tushumlarning kamayishining oldini oladi.

**3. Iqtisodiy shaffoflikni oshirish:** Bojaxona audit orqali tovarlarning kelib chiqishi, ularning miqdori va qiymati haqida aniq ma'lumotlar yuritilishi ta'minlanadi.

**4. Bojaxona tushumlarini kamaytirish:** Yashirin iqtisodiyot doirasidagi tovarlar noqonuniy yo'l bilan import qilinishi yoki eksport qilinishi mumkin, bu esa bojaxona tushumlarining kamayishiga olib keladi. Audit amalga oshirish orqali bojaxona organlari yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlashga harakat qiladi.

**5. Tovarlar va xizmatlar qiymatini manipulyatsiya qilish:** Ba'zi kompaniyalar yoki shaxslar import qilgan tovarlarining qiymatini sun'iy ravishda pasaytirib ko'rsatishi yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan bojaxona yig'imlaridan qochishga harakat qilishadi.

**6. Bojaxona hujjatlarining noto'g'ri to'ldirilishi:** Yashirin iqtisodiyot doirasidagi subyektlar bojaxona deklaratsiyalarini noto'g'ri to'ldirishlari yoki yolg'on ma'lumotlar kiritishlari mumkin.

**7. Qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash:** Yashirin iqtisodiyotda ishlayotgan kompaniyalar yoki shaxslar bojaxona tizimi orqali o'z daromadlarini yashirishga urinishadi.

Mazkur yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishda sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish, "raqamli bojaxona" tamoyili asosida bojaxona postlari faoliyatini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bu esa tovar va transport vositalarining yalpi bojaxona nazoratidan o'tkazishdan voz kechgan holda bojaxona qonunbuzilishlarini aniqlash samaradorligini oshirishga olib keladi. Eng muhimi, bu jarayonlarda inson omili sezilarli ravishda qisqaradi.

Bojaxona audit yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda muhim o'rIN tutib, buning uchun unumli tizim va choralarni ishlab chiqish zarur.

Mamlakatimizda amaldagi qonunchilik talabiga asosan xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish va unga qarshi kurashishda bojaxona organlari bojaxona auditini vakolatli shaxsga nisbatan quyidagilarni o'rganish va tekshirish orqali amalga oshiriladi:

bojaxona deklaratsiyasida qayd etilgan ma'lumotlarning tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga mosligi;

bojaxona yuk deklaratsiyasida rasmiylashtirilgan tovarlarning O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kodiga muvofiq to'g'ri tasniflanganligi;

ma'lum qilingan bojaxona qiymatining haqqoniyligi;

bojaxona to'lovlarining to'g'ri hisoblanganligi va undirilganligi;

tovarlarga nisbatan tarif preferensiyalarining to'g'ri qo'llanilganligi;

bojaxona to'lovları bo'yicha imtiyozlar to'g'ri qo'llanilganligi, tovarlardan foydalanish bo'yicha cheklowlarga rioya etilganligi yoki ulardan belgilangan maqsadda foydalanilganligi;

bojaxona to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa talablar va majburiyatlarga rioya etilganligi.

"Bojaxona audit" tizimning ishga tushirilishi "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish va tadbirkorlarga qulaylik yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, bojaxona xizmati organlariga bojaxona nazorati shakli sifatida mahsulotlar chiqarib yuborilgandan keyin tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi ishini baholash hamda ularning mahsulotlar va transport vositalari chiqarib yuborilgandan keyingi hisobini tekshirishni nazarda tutuvchi bojaxona auditini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Shunga asosan erkin muomalaga chiqarilgan mahsulotlar doirasida bojaxona nazoratidan keyingi tekshiruvni amalga oshirish uchun amaliyotga joriy etilgan "Bojaxona audit" avtomatashtirilgan axborot tizimi faoliyat yuritmoqda. Ta'kidlash joizki, bojaxona audit AQSH, Rossiya, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va G'arbiy Yevropa mamlakatlari bojaxona tizimi amaliyotida keng qo'llanilib kelinmoqda. Bojaxona tizimida ham mazkur amaliyotning joriy etilishi natijasida "Xavfni boshqarish" avtomatashtirilgan axborot tizimi orqali "ko'k yo'lak"ka yo'naltirilgan hamda shartli ravishda erkin muomalaga chiqarilgan mahsulotlar ustidan samarali nazorat amalga oshiriladi. O'z ornida mahsulotlar chiqarib yuborilganidan keyin, xavf prinsiplari doirasida

ularni kompleks tekshirish imkoniyatining mavjudligi, mahsulotlarni bojxona chegarasiga kirib kelishi va bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish jarayonidagi nazorat tadbirlarini qisqartirishga olib kelmoqda. Buning natijasida tadbirkor tomonidan import qilingan mahsulotlar avtomatlashtirilgan dastur orqali rasmiylashtirilib, inson aralashuviz qisqa fursatda chiqarib yuborilmoqda. Shu bilan birgalikda bojxona qonunbuzilishlarini aniqlash va yashirin iqtisodiyotga chek quyish maqsadida "Bojxona audit" dasturi tahlil usullari orqali xavf obyektini tanlab olib, tekshirib ko'rish yuzasidan topshiriq beradi. Bu esa halol tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berib, mahsulotlarning bojxona nazorati va rasmiylashtiruviga sarflanadigan vaqt ni qisqartiradi. Aksincha, qonunchilik talablarini buzishga va xufiyona iqtisodga qo'l urishga uringan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan to'laqonli bojxona nazoratini nazarda tutadi. Bu esa o'z o'rnida "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish va oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlangandek, bojxona audit yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda asosiy vazifani bajaradi. Uning asosiy funksiyalari qatoriga soliq va bojxona tartib-taomillarini raqamlashtirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini mustahkamlash kiradi. Bojxona auditining samaralilagini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, tizimning shaffofligini ta'minlash va xalqaro tajribalarni joriy etish muhimdir.

**Xulosa.** Yuqoridagilarga asosan mamlakatimizda xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri muhim omil hisoblanib, bu borada quyidagi taklif va tavsiyalarimizni ilgari suramiz:

soliq va bojxona tizimini raqamlashtirish orqali byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

– bojxona to'lovlarini to'lovchilarning majburiyatlarini to'liq bajarilishini nazorat qilish uchun shaffof tizimni joriy etish;

– korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini mustahkamlash va ichki nazoratni ta'minlash;

– xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mamlakat sharoitiga moslashtirish;

– yashirin iqtisodiyotning norasmiy va kriminal (jinoiy) hamda boshqa sohalar tizimini chuqurroq o'rganish;

– yashirin iqtisodiyotning "kul rang" sohasi vakillarini faoliyatini legallashtirish, rasmiy tadbirkorlik subyektlariga va xodimlariga aylanishlarini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

sohada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, ma'muriy iqtisodiyotga o'rtasida raqobat muhitini shakllantirish va ularni huquqlari aralashuvini qisqartirish, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlarni himoyalash;

muntazam faoliyat yurituvchi va asosiy funksional vazifasi yashirin iqtisodiyot sohasidagi huquqbazarilikka qarshi kurashish bo'lgan tuzilmani tashkil etish.

Bizning fikrimizcha raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va blokcheyn asosidagi tizimlar bojxona auditining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Masalan, blokcheyn texnologiyasi tovarlarning kelib chiqishi va harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi, bu esa kontrabanda va noqonuniy importning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Abulqosimov M.H. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari va yo'llari, Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi 2017, 46-53-b;
2. Abusufyanova Z.T Rol tamojennix organov v sisteme kontrolya za soblyudeniyem valyutnogo zakonodatelstva Rossiyskoy Federatsii Dagestanskiy gosudarstvenniy universitet, g. Maxachkala, Rossiyskaya Federatsiya, [xametovaz@mail.ru](mailto:xametovaz@mail.ru) c.78;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 27-iyul kuni yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidagi nutqi 2-b;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojaxona auditini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qaroriga ilova qilinga Nizom 3, 5-b;
5. Mazhar, U. and Méon, P.G., 2017. Taxing the unobservable: The impact of the shadow economy on inflation and taxation. World Development, p- 89-103;
6. Qobilov Sh. R., Abdullajonov N. B. Korrupsiya va xavfsizlik. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. 43-b;
7. Schneider, F., 2011 17 b. The shadow economy and shadow economy labor force: what do we (not) know? p-17;
8. T.S. Rasulov, SH.S. Egamberdiyev "Yashirin iqtisodiyot: kelib chiqish sabablari, shakllari va o'lchash usullari" "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №3, 2020 yil 3-b;
9. H.P.Abulqosimov "Yashirin iqtisodiyotning mohiyati, sabablari va oqibatlari, unga qarshi kurash yo'llari" IQTISOD VA MOLIYA jurnali 2020, 2(134) UDK: 338.22, BBK 65-b;
10. Sh.Nishonqulov "[Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va unga qarshi samarali kurashish yo'llari](#)" Journal of innovations in scientific and educational research jurnali 314-b;
11. <http://biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/49558~xufiyona-iqtisodiyotning-davlat-vajamiyat-taraqqiyotiga-tasiri?tmpl=component&print=1&page> 3-b;

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 4 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).